

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ABDULLA QAHHORNING “TOBUTDAN TOVUSH” KOMEDIYASIDAGI KULGU YARATUVCHI VOSITALAR TASNIFI

Shahlo Toshboltayeva Rustamjon qizi

University of Business and Science

Lingvistika yo’nalishi 1-bosqich magistranti

Annontatsiya: Ushbu maqolada badiiy asarning inson ruhiyatiga tasiri o’rganiladi. O’zbek komediyalarida sintaktik uslubiyati va Abdulla Qahhorning “Tobutdan tovush” asaridagi kulgu yaratuvchi vositalar tasnif qilingan. Bundan tashqari kulgi hosil qiluvchi lisoniy bo’lmagan vositalar haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: Badiiy asar, komediya, yumor, satira, antroponim, frazema, ko’p ma’noli so’z, mubolag’a, grotesk, mimika, imo-ishoralar.

Annotation: This article examines the influence of a work of art on the human psyche. Syntactic methodology in Uzbek comedies and means of laughter in Abdulla Qahhor's "Sound from the Coffin" are classified. In addition, non-verbal means of laughter are discussed.

Keywords: work of art, comedy, humor, satire, anthroponym, phrase, polysemy, exaggeration, grotesque, mime, gestures.

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние произведения искусства на психику человека. Классифицированы синтаксическая методика в узбекских комедиях и средства смеха в произведении Абдуллы Каххора «Звук из гроба». Кроме того, обсуждаются невербальные средства смеха.

Ключевые слова: художественное произведение, комедия, юмор, сатира, антропоним, словосочетание, многозначность, преувеличение, гротеск, мим, жесты.

Badiiy asar insonning go’zallik qonunlari asosidagi ijodiy-ruhiy faoliyat mahsulidir. U tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan bo’lib, kishilarga estetik zavq berish xususiyatiga ega. U insonlarni butun bir borliqqa o’zgacha nigoh bilan boqishga o’rgatadigan, ko’plab imkoniyatlarni o’zida mujassamlashtira olgan muloqot vositasidir. Badiiy asarda narsa-hodisalarni jonli tasvirlashda, ruhiy kechinmalarni yorqin ifodalashda til vositalari yaqindan ko’maklashadi, ularni esa turli janrlarda uchratishimiz mumkin. Xususan, komediyalarda asarning qay darajada inson ongiga ta’siri yozuvchining mahoratida o’z ifodasini topadi.

Komediya janrida yaratilgan asarlar dramatik turga mansub bo’lib, qahramonlarning o’ziga xos xarakterini yoritishda yumor va satiraga boy bo’lishi bilan boshqa dramatik asarlardan farq qiladi. “Komediya” antik davrlardayoq janr sifatida shakllangan bo’lib, unda xarakterlar, holat va voqealar kulgili tarzda taqdim etiladi. Asosiy e’tibor insonlarning fe’l-atvoridagi kamchiliklar, jamiyatda yuz berayotgan nohaqliklar, turli xil illatlarga qarshi qaratilgan bo’ladi. Kulgi asar tilini yumorga aylantirib lirizm bilan birgalashib o’ziga xoslik bag’ishlaydi. O’zbek komediyalarida antroponimlar, laqablar, toponimlar, ko’p ma’noli so’z va iboralar,

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

okkozional frazemalar, mubolag‘alardan foydalanish, personajlar nutqida har xil qo‘pol so‘zlardan ishlatish, asarda qo‘llanilgan narsa-buyum otlariga boshqacha nom berish, boshqa tildan so‘z olish va chet so‘zlarni o‘zbekchaga moslashtirish kabilar kulgi uyg‘otuvchi vositalarga aylangan.

Biz ushbu maqolada Abdulla Qahhor ijodiga to‘xtalar ekanmiz, uning komediya janridagi asarlari alohida e’tirofga sazovor. Xususan, uning “Tobutdan tovush” yohud “So‘nggi nusxalar” asarida o‘sha davr uchun xos bo‘lgan illatlar hajv o‘ti ostiga olinib, ayniqsa, jamiyatdagi poraxo‘rlikdek dahshatli illatni tag-tomiri bilan yo‘qotish niyatida ayrim ko‘rinishlari sahnaga olib chiqildi. Ushbu komediyada bundan tashqari o‘zbek tilining naqadar boy til ekanligiga yana bir bor guvoh bo‘lishimiz mumkin. Bunga asardagi yumor yaratuvchi vositalarni tasnifiy belgilar asosida guruhlarga ajratish orqali amin bo‘lishimiz mumkin. Drama uch parda, yetti ko‘rinishli.

1. Ko‘p ma’noli so‘z va iboralar hamda okkazonial frazemalar vositasida kulgi hosil qilish usuli. O‘zbek komediyalarida muvaqqat ma’no, ya’ni so‘zning ma’no tuzilishida shakllanib yetmagan, ma’lum individual qo‘llanishda yuzaga chiqadigan okkozional ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar, ko‘p ma’noli so‘zlar va iboralar kulgi hosil qilishda eng asosiy usul hisoblanadi. Masalan, “Tobutdan tovush” dagi quyidagi personajlar nutqiga e’tiborimizni qaratsak;

Yusuf. (ryumkaldagi konyak yuqini bitta ryumkaga to‘plab). **Hozir sug‘urib tashlaymiz.** Voy boshim... (konyakni ichmoqchi bo‘ladi.) [Abdulla Q, 1962: 130]

Suxsurov. Iye, darrov keldingmi?

Yusuf. Kecha bittasini olib chiqib **itxonaga bog‘lab qo‘ygan edim.**

Suxsurov. Bu yarim-ku?

Yusuf. **Konyakni itga ham ishonib bolmas ekan-a, yalab qo‘yibdi.** [Abdulla Q, 1962: 131]

Shobarot. Menga qarang, Nusrat aka, **boshiga ish tushgan odamni shilish- o‘likning kafanini yechib olishday gap emasmi?** [Abdulla Q, 1962: 138]

Obidjon. Sizga hech narsa demadilarmi?

Hojar. Dedilar... Bu yigitga tegma **yuzida farishtasi yo‘q** dedilar. [Abdulla Q, 1962: 153]

Ushbu ajratilgan asardagi nutqlarda so‘zlar o‘z ma’nosida emas, balki ko‘chma ma’noda qo‘llanib ko‘p ma’nolilikni hosil qilgan. “Hozir sug‘urib tashlaymiz” bunda ichamiz degan ma’no, “Itxonaga bog‘lab qo‘ygan edim” da esa yashirib qo‘yganligiga ishora bor. “Konyakni itga ham ishonib bo‘lmas ekan, yalab qo‘yibdi” jumlasida o‘zi ichib qo‘yganlini tushunishimiz mumkin. “Boshiga ish tushgan” ushbu

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ibora tashvishi bor ekanligi anglatadi. “ O‘likning kafanini yechib olishday” deganda borini berib bo‘lgan insondan yana pul talab qilinayotgani nazarda tutilgan. Asar komediya janrida bo‘lganligi sababli ham bunday so‘z o‘yinlaridan mohirona foydalanilgan.

2. Har xil qo‘pol so‘zlarni ishlatish orqali kulgi hosil qilish usuli.

Yozuvchi komediyada ba’zan qahramonlar nutqi tarkibida shunday so‘zlarni qo‘llaydiki, ular qo‘pol va adabiy tilda unchalik qo‘llanilmasa-da, badiiy asarda doimo yumoristik muozanatni saqlab turish uchun xizmat qiladi. Masalan, asarda uchraydigan Netayxon obrazida bunday so‘zlar doimiy ravishda qo‘llanilgan.

Netayxon. Uzoqdan tanimabman... **Diydori qursin**, azonda nima qilib yuribdi! **So‘xtasi sovuq!** [Abdulla Q, 1962: 130]

Netayxon. **O‘!** Qori pochchangni chaqir! [Abdulla Q, 1962: 130]

Netayxon. Qanaqa ukam? Obid bilanmi? **Hu diydori qursin!** Shuncha yildan beri yarashmay endi yarashamanmi? [Abdulla Q, 1962: 130]

Netayxon. Erga tegasanmi? **Hoy, kalla** senga aytayapman, **juvonmarg**, gapirsangchi? [Abdulla Q, 1962: 144]

Netayxon (qiyqirib yuboradi). **Voy diydoring qursin!** (suxsurovga.) Kimga emish! Er bo‘lsa bo‘ldida! [Abdulla Q, 1962: 133]

3. Antroponimlar (nomlar va laqablar) orqali kulgu hosil qilish usuli.

Yozuvchi ushbu kitobida Qori, Netayxon laqablaridan jozibadorlik, milliy mahorat, o‘zgacha ma’no hosil qilish, obraz tabiatini ochish maqsadida ustalik bilan foydalanadi. Boisi, Qori obrazi aslini olganda tabiatan buzuq fe’lli, yengiltak kimsa bo‘lib, bundan tashqari Suxsurovni qing‘ir ishlarida sherik bo‘ladi. Netayxon bilan doimiy ishqiy munosabatda bo‘lib, lekin o‘zini xudojo‘y qilib ko‘rsatishdan charchamaydi. Netayxon - asl ismi Ozoda, hamqishloqlari unga shunday laqab berishgan. Chunki uning qilib yurgan ishlaridan Suxsurovdan tashqari barcha habardor bo‘lgan. Bu ism qadimda bir yengiltak ayolning ismi edi. Uning tabiati shu darajada ochib berilganki, ochko‘z, faqat o‘zini o‘ylaydigan ayol timsolida hayolimizda gavdalanadi.

4. Turli kasb egalari va qatlamlar nutqiga oid so‘zlarni keltirish orqali kulgi hosil qilish.

Asarda Qori nutqidagi diniy ulamolar ishlatadigan so‘zlar kulgi hosil qilishda o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Netayxon (qattiq shivirlab). Qori aka, Qori aka deyman!..

Qori (uyqusirab) . **Hollo!..**

Netayxon. Turing.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Qori (quchoqlamoqchi bo‘ladi). **Xudoyo yetkur, ne‘matinga shukur!** [Abdulla Q, 1962: 127]

Qori. **Xudoyi taolo nuri pokidan yaratgan sizdey farishtani ko‘rib, fisq-fujur yo‘liga yurmoq kufroni ne‘mat bo‘lur edi.** [Abdulla Q, 1962: 155]

Qori. Pora bergan kishining yuziga qaramaydi, **tasadduq!** [Abdulla Q, 1962: 161]

Qori. Bu hurmati **kalamullo...** [Abdulla Q, 1962: 155]

4. Mubolag‘a orqali kulgi hosil qilish.

O‘zbek komediyalarida personajlarning tashqi ko‘rinishi yoki xarakter xususiyatlari tasvirlanar ekan ba‘zan mubolag‘a yordamida ham kulgi hosil qilinadi. Tilshunoslikda bu hodisani *grotesk* deb ataladi. Grotesk satirada haqiqiy holni fantaziya bilan qo‘shib, vahimali hamda kulgili tarzda bo‘rtirib tasvirlaydi. Masalan: Netayxon (erini uyg‘otadi). Nusrat aka, Nusrat aka deyman, turing...

Suxsurov yana ham qattiqroq hurrak tortadi, **o‘zing hurragiga o‘zi uyg‘onib ketadi.** [Abdulla Q, 1962: 127]

Yusuf (turadi). Voy boshim.

Suxsurov. **Ikki chakkamga ikkita arava mix qoqib qo‘yganga o‘xshaydi.** Voy... [Abdulla Q, 1962: 130]

“Ikki chakkamga ikkita arava mix qoqib qo‘yganga o‘xshaydi” bunda boshdagi og‘riqni kitobxonga yanada kuchliroq ifodalash uchun ushbu mubolag‘adan foydalanilgan.

Hojar. “Rabbikuma tukazzubon” boshi esimdan chiqib qoldi. Shuni qirq marta o‘qib arqonga dam solsa, **arqon ilon bo‘ladi.** [Abdulla Q, 1962: 143]

Hojarning nutqidagi arqonni ilonga aylanishi asli olganda haqiqatdan ancha yiroq.

Kulgi hosil qiluvchi lisoniy bo‘lmagan vositalar borki, ular nutqni bevosita kuzatib boruvchi asoslar hisoblanadi. Ular til tuzilishiga kirmaydi, ammo nutqning ta’sirchanligini, ixchamligini ta’minlaydi. Ana shunday vositalar ichida “imo-ishoralar”, “mimikalar” alohida o‘rin tutadi. Ular tilshunoslikda paralingvistik vositalar nomi ostida o‘rganiladi. Paralingvistik vositalar nutqning ta’sirchanligi, ixchamligini ta’minlaydi. Shu bilan birga kulgi qo‘zg‘atish uchun asos bo‘ladi. Nutqda ifodalash mumkin bo‘lmagan holatlarni imo-ishora, mimikalar orqali ifodalash mumkin bo‘ladi. Mimikalar, imo-ishoralar xilma-xil bo‘lib, turlicha ma’no ifodalashga xizmat qiladi. Kulgi hosil qiluvchi vositalarga ovoz toni ohangini ham kiritish mumkin. Ovozni pasaytirish, ko‘tarish, ohangni o‘zgartirish orqali ham kulgi ifodalash mumkin. [Nurmonov A, 1980: 18]

O‘zbek komediyalarining lisoniy xususiyatlarini o‘rganish jarayonida o‘zbek tilining kulgi va yumorga boyligining, Abdulla Qahhorning haqiqatdan ham betakror

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

so‘z ustasi ekanligining guvohi bo‘ldik. Komediyalarda yuzaga kelgan kulgi muayyan tarixiy sharoitda jamiyat taraqqiyotining mavjud holati, ideallarga nomunofiq bo‘lgan ijtimoiy faktlar (urf-odatlar, insonlarning xatti-harakatlari, ularning ma’naviy axloqiy qiyofasi) ustidan kulish sifatida voqe bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdulla Qahhor. Tobutdan tovush. – Toshkent. 1962.
2. Nurmonov A. O‘zbek tilining paralingvistik vositalari haqida. Andijon.1980.